

## BOLALAR NAFAQASI VA MODDIY YORDAM TA'YINLASH MANZILLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

*Majidova Mohinur Ulash qizi*

*O'zbekiston Respublikasi Bank – Moliya akademiyasi magestiri*

[\*mohinurxonmajidova@gmail.com\*](mailto:mohinurxonmajidova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola mamlakatimizdagi olib borilayotgan islohotlar bolalar nafaqasi holati va uning manzililiginini ta'minlash takomillashtirish xalqning uzog'ini yaqin qilish. Bola puli va nafaqalar haqiqiy egalariga yetib borayotganligini kuzatishni izohlab o'tadi.

**Kalit so'zlar:** bolalar nafaqasi, moddiy yordam, to'lovlar, xalq banki, yagona reestir, ortiqcha to'lovlar, onlain ariza, ijtimoiy markaz, budjetdan tashqari pensiya fondlari.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam AT «Xalq banki»ning tuman (shahar) bo'limlari (filiallari) orqali naqd pul shaklida yoki pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan fuqarolarning bank hisobi varaqlari (plastik kartalari) orqali to'lanadi. Elektron to'lov ro'yxat (vedomost)lari har oyning 4-sanasiga qadar «Yagona reestr» AT orqali AT «Xalq banki»ning tuman (shahar) bo'limiga taqdim etiladi, muddatning oxirgi kuni bayram va dam olish kunlariga to'g'ri keladigan bo'lsa, elektron to'lov ro'yxati (vedomost)lari keyingi 2 ish kuni mobaynida AT «Xalq banki»ning tuman (shahar) bo'limiga taqdim etilishi mumkin. To'lovning o'tgan oyida olinmagan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam summasi to'lovning joriy oyi to'lov ro'yxatlariga kiritiladi hamda tayinlangan, biroq o'z vaqtida olinmay qolgan to'lovlar o'tgan davrlarda hisoblangan miqdorlarda butun davr uchun, biroq bolalar nafaqasi yoki moddiy yordamni olish muddati tugaganidan keyin uch oydan ortiq bo'lmagan muddatda bir yo'la to'lanadi.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordamni to'lash «Yagona reestr» AT orqali bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam miqdorini va muddatini belgilash jarayonida texnik sabablarga ko'ra ortiqcha to'lovlar vujudga kelganda, ushbu ortiqcha to'lovlar, birinchi navbatda, tegishli bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam oluvchilarga joriy va kelgusi oylar uchun hisoblanadigan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam mablag'lari hisobidan qaytariladi.

Qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan tayinlash muddati tugaganligi yoki tugayotganligi sababli ortiqcha to'lovni qoplash uchun hisoblanadigan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam summasi yetarli bo'lmagan hollarda: ortiqcha to'lovlarning qoplanmagan summasi bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam oluvchi tomonidan o'z

xohishiga ko'ra qoplanishi mumkin; bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchiga uning arizasiga muvofiq belgilangan tartibda unga takroran tayinlanadigan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Mazkur badda nazarda tutilgan chora-tadbirlar natijasida ortiqcha to'lov aniqlangan oydan boshlab 12 oy o'tgandan so'ng ortiqcha to'lovlarnin qoplanmagan qismi sud tartibida undiriladi.

Boshqa hollarda bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam miqdorlaridan chegirmalar qilinishi mumkin emas. Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam to'lash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam pulining uchinchi shaxsga ishonchnoma orqali to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi. Ariza bergan shaxs vafot etgan taqdirda, bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam oilaning muomalaga layoqatli a'zosiga yoki qonuniy vakiliga to'lanadi. Bunda oilaning muomalaga layoqatli a'zosi yoki qonuniy vakili tegishli arizani va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, mavjud bo'lganda — vasiylik yoki homiylikni tayinlash to'g'risidagi qaror nusxasini AT «Xalq banki»ning tegishli filialiga taqdim etishi orqali tayinlangan bolalar nafaqasi yoki moddiy yordamni olishi mumkin.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam to'lovi oyining 4-sanasidan 27-sanasiga qadar amalga oshiriladi.

Kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar va moddiy yordam (3 yoshgacha va 18 yoshgacha bola nafaqasi) Oilaning bir a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha bir oylik daromad hajmini aniqlash.

Normativ hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.03.2021-yildagi 122-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 654-son. 21.10.2021-y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4555-son qarori. 30.12.2019-y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6277-son farmoni. 11.08.2021-y. "Ishlovchi onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 308-son 13.04.2019y. Hukumatning 2023-yil 10-noyabrdagi qaroriga asosan, bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash tartibiga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Qaror bilan tizimda joriy va 2024-yilda qator yangiliklar bo'lishi kutilmoqda. Pensiya jamg'armasi bo'lim boshlig'i Sardor Fayzullayev "Daryo"ga bergan intervyusida mazkur o'zgarishlarni tahlil qildi.

Tizim takomillashib borgani sari jarayon ham chuqur o'rganilmoqda. Natijada ayrim fuqarolar o'zining mol-mulki yoki avtotransport vositasini qarindoshi nomiga o'tkazib, kam ta'minlangan sifatida nafaqa olayotgani aniqlangan. Ba'zi nafaqa berilayotgan oilalarning mol-mulk, mashina, yuqori ish haqi olayotgani va iqtisodiy holati yaxshilangani ham kuzatildi. Oqibatda aholi orasida ijtimoiy adolat buzilyapti, degan tasavvur uyg'ondi. Bunday holatlarning oldini olish, jarayonni yanada

raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish maqsadida hukumatning ushbu qarori qabul qilindi.

“Onlayn ariza berish tartibi yo‘lga qo‘yiladi”

Qarorga asosan, 2024-yil 1-apreldan boshlab “Yagona interaktiv davlat xizmatlari” portali orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam olish uchun onlayn murojaat qilish tartibi joriy etiladi. Bunda onlayn arizani fuqarolar yoki ularning nomidan (fuqaro roziligi bilan) Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududlardagi xodimlari kiritishi mumkin bo‘ladi. Ayrim oilalarda nogironlik holati bo‘lishi yoki kam ta‘minlangani uchun internetga ulanadigan telefoni bo‘lmasligi mumkin. Ya‘ni hammadam ham onlayn ariza berish imkoni yo‘q. Shu kabi holatlar uchun “Inson” ijtimoiy markazining xodimlariga o‘sha fuqarolar nomidan ariza topshirish huquqi berilmoqda. Tizimga kiritiladigan yana bir o‘zgarish: 2024-yil 1-yanvardan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufiga o‘tdi. “Oilaning iqtisodiy holati doimiy o‘rganiladi”

Yangi kiritilayotgan tartibga ko‘ra, 2023-yil dekabrda bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan oilaning iqtisodiy ahvoli har oyda o‘rganib boriladi. Agar oilaning iqtisodiy holatida yaxshilanish kuzatilsa, masalan, u mol-mulk, yangi avtomobil xarid qilgani aniqlansa, dastur moddiy yordam berish mezonlarini qaytadan avtomatik o‘rganadi. Oila o‘sha mezonlarga mos kelmay qolgan taqdirda pul berish to‘xtatiladi. Bolalar nafaqasi tayinlangan oilada bolalar soni o‘zgargan taqdirda nafaqa qayta hisoblanadi.

Bolalar nafaqasi tayinlangan oilada bolalar soni o‘zgargan taqdirda (navbatdagi bola tug‘ilganda, 18 yoshgacha bolalardan biri vafot etganda, bola (bolalar) 18 yoshga to‘lganda va shu kabilar), nafaqa miqdori bolalarning tegishli sonidan kelib chigib, keyingi oydan boshlab qayta hisoblanadi,. Bola puli olishni davom ettirishga muhtoj bo‘lgan shaxs to‘lovni davom ettirish uchun qancha muddatda qayta ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam to‘lashning belgilangan muddati tugagach, ariza beruvchi ushbu bolalar

2021-yil 1 sentabrdan boshlab bolalar nafaqasi to‘lovlarining har oylik miqdori quyidagicha belgilangan:

250 000 so‘m- 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bitta farzand uchun;

325 000 so‘m - yoshi 3 yoshgacha bo‘lgan bitta kichik farzand uchun;

150 000 so‘m -oilaning ikkinchi farzand uchun qo‘shimcha; 100 000 so‘mdan - oilaning uchinchi va undan keyingi harbir farzand uchun.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlashda oilaning har bir mehnatga layoqatli yoshdagi a‘zosini rasmiy daromad manbalariga egaligini aniqlashtirish talab qilinadi. Belgilangan mezonlar asosida oilani kam ta‘minlangan oila deb e‘tirof etish va unga bolalar nafaqasi yoki moddiy yordamni tayinlash yoxud tayinlashni rad etish "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda



to'xtatilmay edi. Chunki buning huquqiy asosi bo'lmagan. Yangi qaror bilan shu asos yaratildi. Endi dastur barchasini avtomatik tarzda aniqlaydi. Aytaylik, nafaqa tayinlangan fuqaro mashina sotib olsa, Ichki ishlar vazirligi axborot tizimi orqali dasturga ma'lumot kelib tushadi va o'sha oilaga moddiy yordam berish to'xtatiladi"-- degan Sardor Fayzullayev.

Ma'lumot uchun, O'zbekistonda 2,2 milliondan ortiq kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam pullari to'lanmoqda. 2023-yilda ushbu to'lovlar uchun davlat budjetidan jami 12,2 trillion so'm yo'naltiriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Tursunov J.P Pensiya hisoblashda mehnat stajining ta'siri va pensiya yoshini belgilashda xorij tajribasi. Tom 24 N6 (Экономика и образования)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026" yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi farmoni (qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 21.04.2022) 06/22/ 113/0303 – son/
3. Jung Peng State and Local Pension Fund Management (Public Administration and Public Policy) 0<sup>th</sup> Edition USA Publisher Auerbach Publications (August 21 2008) – P.45